

---

## Batkenda o'tkazilgan yarmarkada Rishton va So'x tumani vakillari ham ishtirok etishdi

### **O'zbek va qirg'iz xalqlari ko'p asrlik yagona tarix, o'xshash madaniyat, mushtarak til va ma'naviy qadriyatlar bilan bir-biriga chambarchas bog'langan.**

Bugungi kunda O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlarining siyosiy irodasi tufayli tomonlar ko'plab dolzarb masalalarni hal etish va o'zaro hamkorlik aloqalarining ijobiy o'sishiga erishdi.

Shu bilan birga, ikki davlat vakillari o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar o'zaro munosabatlarning yuqori darajasini namoyon etmoqda.

Aytish lozimki, oxirgi yillarda o'rnatilgan do'stlik munosabatlari samarasi o'laroq, qo'shni Qirg'iziston Respublikasining chegara tumanlari bilan savdo-iqtisodiy, tadbirkorlik, madaniyat va san'at sohasida ikki tomonlama hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

Bugun Qirg'izistonning Batken shahrida "Oltin kuz" qirg'iz-o'zbek xalqlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkasi o'tkazilib, unda Rishton va So'x tumani qishloq xo'jaligi vakillari o'z mahsulotlari bilan ishtirok etishdi.

Mehmonlarni Batken rayoni davlat administratsiyasi rahbari Uchqunbek Imomalievich Jorobaev, Batken shahri meri Imomnazar Apizovich Barxanovlar samimiy so'zlar bilan qutlashdi.

So'zga chiqqanlar har ikki qardosh xalqlar do'stligi haqida fikr bildirib, o'zaro mehr-oqibat va do'stlik munosabatlari rishtalari ikki davlat rahbari Shavkat Mirziyoev va Sadir Japarovlarning kuchli siyosiy irodalari tufayli yanada mustahkamlanayotganligini qayd etib o'tdilar.

Tadbir davomida mehmonlar tashakkurnomalar va esdalik sovg'alar taqdim etildi. Shuningdek o'zaro fikr almashilib, hamkorlikni yanada kengaytirish borasida so'z bordi. Unda o'zbek va qirg'iz xalqlari azal-azaldan do'stlik va inoqlikda yashagani, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi aloqalar mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganini e'tirof etishdi.

### **Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2024-11-14 12:50:12